

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIY-METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**“NOYOB VA RADIOAKTIV METALL RUDALARINI QAZISH VA  
QAYTA ISHLASH TEXNIKASI VA TEXNOLOGISI”  
yunalishi**

**“GEOTEXNOLOGIYA ASOSLARI”**

**moduli bo‘yicha**

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

**TOSHKENT -2022**

*Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 25-dekabrda 538-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dastur asosida tayyorlandi.*

**Tuzuvchilar:** NavDKI “Noyob va radioaktiv metall rudalarini qazish va qayta ishlash” kafedrasida dotsenti, t.f.n. I.U.Xalimov.

NavDKI “Noyob va radioaktiv metall rudalarini qazish va qayta ishlash” kafedrasida dotsenti, assistenti. S.B.Xamidov.

**Taqrizchi:** NKMK 5–KB bosh muxandis muovini, t.f.n. M.A. Qurbonov

*O‘quv-uslubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2021-yil 29-dekabrda 4-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, foydalanishga tavsiya etildi.*

## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI .....</b>	<b>10</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR.....</b>	<b>16</b>
<b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>44</b>
<b>V. GLOSSARIY .....</b>	<b>56</b>
<b>VI. FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>59</b>

# I. ISHCHI O‘QUV DASTUR.

## Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019-yil 27-avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ishchi o‘quv dasturda foydali qazilmalarni geotexnologik o‘zlashtirish asoslari, foydali kazilma konlarini geotexnologik usulda kazib olishning fizik-kimyoviy asoslari va jarayonlari, geotexnologik usulda kazib olishning ishlab chikarish jarayonlari, geotexnologik usulda konni ochish va tayyorlash kazib olish tizimlari bo‘yicha bilim ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan.

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** Tinglovchilarga noyob va radioaktiv metallarni ajratib olishning nazariy asoslarini o‘rgatish, foydali qazilmalarni boyitishga tayyorlash va ajratib olish jarayonlarida ishlatiladigan zamonaviy dastgoxlar bilan tanishtirish hamda rudadan minerallarni geotexnologik ajratib olish hisobiga yuqori iqtisodiy va texnologik ko‘rsatkichlarga erishish usullari haqida ma’lumot berish.

**Modulning vazifasi:** Tinglovchilarga rudalarini geotexnologik usul yuqori ajratib olish sohasidagi bilimlarning bir butun tizimi bilan o‘zaro bog‘liklikda noyob va radioaktiv metallarni ajratib olish, konlarni o‘zlashtirishda texnologik jarayonlar, bu

jarayonlarning borishiga ta'sir qiluvchi omillar, qo'llaniladigan uskunalarning tuzilishi va ishlash prinsipi, rudalarni o'zlashtirish samaradorligini oshirish tendetsiyalarini o'rganishga qaratilgan.

### **Modulni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar**

**Kutilayotgan natijalar:** Tinglovchilar **“Geotexnologiya asoslari”** modulini o'zlashtirish orqali quyidagi bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladilar:

#### **Tinglovchi:**

- noyob va radioaktiv metal rudalarini geotexnologik usul bilan o'zlashtirish, konlarni geotexnologik usul bilan ochish sxemalarini tanlay olish **ko'nikmalariga ega bo'lishi;**
- bilimlarning bir butun tizimi bilan o'zaro bog'liqlikda ushbu fanning muammolari;
- noyob va radioaktiv metal rudalarini geotexnologik o'zlashtirish va geotexnologiya asoslari fanining mohiyati va iqtisodiy ahamiyati;
- konlarni geotexnologik o'zlashtirish asoslarining zamonaviy holati va ularda qo'llanilayotgan texnologiyalarni rivojlantirish tendentsiyalari **haqida tushunchaga ega bo'lishi;**
- konlarni geotexnologik o'zlashtirishda texnologik ko'rsatkichlarini taqqoslay olish;
- konlarni geotexnologik o'zlashtirishda noyob va radioaktiv metal rudalarini kompleks ishlatish va chiqindisiz texnologiyani joriy etish haqidagi **ma'lumotga ega bo'lishi** kerak.

#### **Modulning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Geotexnologiya asoslari” moduli “Foydali qazilmalarni geotexnologik usulda qazib olish”, “Noyob va radioaktiv metall rudalarini qazib olish va qayta ishlash korxonalarini loyihalash” va “Yer ostida tanlab eritish eritmalarini qayta ishlash texnologiyasi” kabi fanlar bilan uzviy aloqada o'rganiladi.

#### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Geotexnologiya asoslari” moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va

elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Fan oliy ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining pedagogik mahoratini oshirish va ta'lim jarayonini tashkil etish, oliy ta'lim tizimining nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

### Modul birliklari bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Jami	Nazaiy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1.	Foydali qazilmalarni geotexnologik o'zlashtirish asoslari	2	2		
2.	Foydali kazilma konlarini geotexnologik usulda kazib olishning fizik-kimyoviy asoslari va jarayonlari	6	2		4
3.	Geotexnologik usulda kazib olishning ishlab chikarish jarayonlari	2	2		
4.	Geotexnologik usulda konni ochish va tayyorlash kazib olish tizimlari	2	2		
5	Geotexnologiya asoslari fanida qo'llaniladigan asosiy atamalarni o'zlashtirish.	2		2	
6	Geotexnologik filtrlarni tanlash va ularning asosiy o'lchamlarini hisoblash.	2		2	
7	Konlarni sulfat kislotali o'zlashtirish parametrlarini xisoblash	2		2	
	<b>Jami:</b>	<b>18</b>	<b>8</b>	<b>6</b>	<b>4</b>

## NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI

### **1-mavzu: Foydali qazilmalarni geotexnologik o‘zlashtirish asoslari.**

Foydali qazilmalarni o‘zlashtirishning nazariy asoslari. Geotexnologiya asoslari. Konlarni o‘zlashtirishning usullari, bosqichlari, qonunlari. Yer osti tanlab eritmaga o‘tkazish. Foydali qazilmalarni xarakatchan xoltga o‘tkazish. Quduqli o‘zlashtirish usullari. Gidravlik o‘zlashtirish usullari.

### **2 - mavzu: Foydali kazilma konlarini geotexnologik usulda kazib olishning fizik-kimyoviy asoslari va jarayonlari.**

Foydali qazilma konlarini qazib olishda tog jinslari massivining gidravlik xususiyati. Umumiy g‘ovaklilik. Dinamik g‘ovaklilik. Erish va ishqorlash jarayonlari. O‘tkazuvchanlik va filtratsiya koeffitsiyenti. gidroajratish, gidrokutarish, gidroparchalash, gidrotransport.

### **3 - mavzu: Geotexnologik usulda kazib olishning ishlab chikarish jarayonlari**

Burgulash skvajinalarini burgulash. Qidiruv burg‘ulash ishlarida qo‘llaniladigan stanoklar. Katta chuqurlikdagi skvajinalarni burg‘ulash uchun SBSH tipidagi sharoshkali burgulash stanogi. Yuvuvchi suyuqlik. Geotexnologiyada ishchi agentlarni ishlab chiqarish. Yer ostida ishqorlash maqsadida sulfat kislotasini ishlatish. Burg‘ulash skvajinalarini yer sirtidagi ta‘minoti.

### **4 - mavzu: Geotexnologik usulda konni ochish va tayyorlash kazib olish tizimlari**

Ochish ishlari olib borilayotgan sharoit va ochish tizimini iktisodiy samaradorligi. Geologik ochish koeffitsiyenti. Texnologik ochish koeffitsiyenti . Iktisodiy ochish koeffitsiyenti. Konlarni geotexnologik usulda kazib olishning asosiy muammolari. Qazib olishning texnologik sxemasi. Konning plandagi o‘lchami. Konning yotish sharoiti.

## AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI

### **1-amaliy mashg‘ulot: Geotexnologiya asoslari fanida qo‘llaniladigan asosiy atamalarni o‘zlashtirish.**

Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish. Geotexnologik quduqlar. Kolmatatsiya turlari. Reagent. Sulfat va azot kislotalar. Foydali qazilma. Filtratsiya koeffitsiyenti.

O'tkazuvchanlik. Texnologik eritmalar va ularning turlari. Aktiv va passiv ishqorlash. Quduq unumdorligi. Ajratib olish koeffitsiyentini o'rganish.

## **2-amaliy mashg'ulot: Geotexnologik filtrlarni tanlash va ularning asosiy o'lchamlarini hisoblash.**

Geotexnologik filtr turlari. Filtr diametri. Filtr uzunligi. KDF tipidagi filtr. Filtrlarni yasashda konstruktiv materiallar. PVX quvurlar. Diskli karkaslar. Graviy filtr. Filtrni quduqga tushirish. O'tkazuvchanlik koeffitsiyentlarini hisoblash.

## **3-amaliy mashg'ulot: Konlarni sulfat kislotali o'zlashtirish parametrlarini xisoblash.**

Yer osti tanlab eritish. Sulfat kislotali o'zlashtirish. Reagentlar. Quduqlar joylashish sxemalari. Blok, yacheyka va konni sulfat kislotali o'zlashtirish. Ajratib olish koeffitsiyenti. Yuboruvchi va so'rib oluvchi quduqlar. Eritmalar xarakati. Blok hajmi. Eritma xajmlarini hisoblash.

## **KO'CHMA MASHG'ULOT MAZMUNI.**

### **1-mavzu Foydali kazilma konlarini geotexnologik usulda kazib olishning fizik-kimyoviy asoslari va jarayonlari.**

Ko'chma mashg'ulotni Olmaliq kon metallurgiya ishlab chiqarish karxonasiga olib borish rejalashtirilgan.

## **TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI**

Ta'limni tashkil etish shakllari aniq o'quv material mazmuni ustida ishlayotganda o'qituvchini tinglovchilar bilan o'zaro harakatini tartiblashtirishni, yo'lga qo'yishni, tizimga keltirishni nazarda tutadi.

Modulni o'qitish jarayonida quyidagi ta'limning tashkil etish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruza;
- amaliy mashg'ulot;
- mustaqil ta'lim;

O'quv ishini tashkil etish usuliga ko'ra:



- jamoaviy;
- guruhli (kichik guruhlarda, juftlikda);
- yakka tartibda.

**Jamoaviy ishlash** – Bunda o‘qituvchi guruhlarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o‘quv maqsadiga erishish uchun o‘zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi.

**Guruhlarda ishlash** – bu o‘quv topshirig‘ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o‘quv jarayonida kichik guruxlarda ishlashda (2 tadan – 8 tagacha ishtirokchi) faol rol o‘ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta’limni tashkil etish shaklidir. O‘qitish metodiga ko‘ra guruhni kichik guruhlarga, juftliklarga va guruhlarora shaklga bo‘lish mumkin. Bir turdagi guruhli ish o‘quv guruhlari uchun bir turdagi topshiriq bajarishni nazarda tutadi. Tabaqalashgan guruhli ish guruhlarda turli topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi.

**Yakka tartibdagi shaklda** - har bir ta’lim oluvchiga alohida- alohida mustaqil vazifalar beriladi, vazifaning bajarilishi nazorat qilinadi.

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

### “SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S – (strength)</b>	• kuchli tomonlari
<b>W – (weakness)</b>	• zaif, kuchsiz tomonlari
<b>O – (opportunity)</b>	• imkoniyatlari
<b>T – (threat)</b>	• tўsiqlar

**Metodning qo‘llanilishi:** Lazerli payvandlashning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

<b>S</b>		
<b>W</b>		
<b>O</b>		
<b>T</b>		

### «Xulosalash» (Rezyume, Veyer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni

mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма материалларни таркатади:



ҳар бир гуруҳ ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қилади;



навбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлар билан тўлдирилади ва мавзу яқинланади.

### Metodning qo'llanilishi:

#### “Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natiija (What).

## “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

### «FSMU» metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

#### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b>					

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

### “Assesment” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:** “Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**“Bilaman /Bilishni xohlayman/ Bilib oldim” metodi (B-B-B).** “Bilaman /Bilishni xohlayman/ Bilib oldim” metodi - yangi o'tiladigan mavzu bo'yicha talabalarning birlamchi bilimlarini aniqlash yoki o'tilgan mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini aniqlash uchun ishlatiladi. Metodni amalga oshirish uchun sinf

doskasiga yangi o‘tiladigan mavzu bo‘yicha asosiy tushuncha va iboralar yoziladi, talaba berilgan vazifani o‘zlariga belgilaydi. Yuqorida berilgan tushuncha iboralarni bilish maqsadida quyidagi chizma chiziladi:

<b>Bilaman</b>	<b>Bilishni xohlayman</b>	<b>Bilib oldim</b>

Ushbu metodda talabai tomonidan berilgan vazifani yakka tartibda yoki jutlikda jadvalni tuldiradi. YA’ni taxminan biz nimani bilamiz ustunida ro‘yxat tuzish fikrlarni toifalar bo‘yicha guruhlash. Bilishni xohlayman ustuni uchun savollar olish va savollarni o‘ylab belgilar qo‘yish. Biz nimani bildik ustuniga asosiy fikrlarni yozish.

**Mavzuga qo‘llanilishi:**

<b>Bilaman</b>	<b>Bilimayman</b>	<b>Bilishni hohlayman</b>

**“5 daqiqali esse” metodi**

Esse metodi - fransuzcha tajriba, dastlabki loyiha, shaxsning biror mavzuga oid yozma ravishda ifodalangan dastlabki mustaqil erkin fikri. Bunda

Talaba o‘zining mavzu bo‘yicha taassurotlari, g‘oyasi va qarashlarini erkin tarzda bayon qiladi. Esse yozishda hayolga kelgan dastlabki fikrlarni zudlik bilan qog‘ozga tushirish, iloji boricha ruchkani qog‘ozdan uzmasdan - to‘xtamasdan yozish, so‘ngra matnni qayta tahlil qilib, takomillashtirish tavsiya etiladi. Mana shundagina yozilgan essening haqqoniy bo‘lishi e’tirof etilgan. Esseni muayyan mavzu, tayanch tushuncha yoki erkin mavzuga bag‘ishlab yozish maqsadga muvofik. Ba’zan, ayniqsa tarbiyaviy soatlarda ta’lim oluvchilarga o‘zlariga yoqqan mavzu buyicha esse yozdirish ham yaxshi natija beradi.

Yozma topshiriqning ushbu turi talabalarning mavzuga doir o‘z mustaqil fikrlarini ifodalay olishga yordam berish va o‘qituvchiga o‘z talabalari o‘quv materialini bilan tanishganda qaysi jihatlariga ko‘proq e’tibor berishlari xususida fikrlash imkonini beradi. Aniq qilib aytganda, talabalardan quyidagi ikki topshiriqni bajarish: mazkur mavzu bo‘yicha ular nimalarni o‘rganganliklarini mustaqil bayon etish va ular baribir javobini ololmagan bitta savol berishni so‘raladi.

## **“Venn diagramma” metodi**

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yoxud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

### III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.

#### 1-mavzu: Foydali qazilmalarni geotexnologik o‘zlashtirish asoslari

##### Reja:

1. Foydali qazilmalarni o‘zlashtirishning nazariy asoslari
2. Geotexnologiya asoslari, xamda konlarni o‘zlashtirishning usullari, bosqichlari, qonunlari.
3. Yer osti tanlab eritmaga o‘tkazish. Foydali qazilmalarni xarakatchan xoltga o‘tkazish.

**Foydali qazilmalarni o‘zlashtirishning nazariy asoslari.** Konchilik ilmi - tabiiy sharoit, geologik muxit, texnologiya, foydali kazilmalarni yer kobigidan kazib olish va birlamchi ishlov berish texnikasi va iktisodi tugrisidagi ilmiy bilimlar tizimidir.

U geologik, fizika-texnik, iktisodiy va konchilik fanlariga bulinadi. Konchilik ilmi foydali kazilmalarni razvedka texnologiyasi, kazib olish va birlamchi ishlov berish fanlari bilan uzviy boglik. Foydali kazilmalarni kazib olish texnologiyasi kuyidagi yunalishlarni uz ichiga oladi: ochik usulda yer osti usulida va burgulash skvajinalari orkali kazib olish texnologiyasi. Burgulash skvajinalari orkali kazib olish texnologiyasi bilan neft suv va kattik foydali kazilmalar kazib olinishi mumkin. Kattik foydali kazilmalarni burgulash skvajinalari yordamida kazib olish xakidagi fan geotexnologiya deb nomlanadi.

Geotexnologiya - foydali kazilmalarni xarakatchan xolatga utkazish va uni yer yuzasidan kongacha bulgan skvajinalar orkali kazib olishni ta’minlash uchun maxsuldor katlamga fizik, kimyoviy biyokimyoviy va mikrobiologik ta’sir kursatish tugrisidagi fandır.

**Geotexnologiya asoslari, xamda konlarni o‘zlashtirishning usullari, bosqichlari, qonunlari.** Geotexnologik usullarning kazib olish jarayoni buyicha tasniflanishiga foydali kazilmani xarakatchan xolatga utkazishning kurinish va usullari asos kilib olingan. **(1-jadval).**

Foydali kazilmalarni geotexnologik usulda kazib olishning aloxida belgilari kuyidagilardan iborat:

\* konni kazib olish, ochish, tayyorlash va foydali kazilmani kazib olish uchun xizmat kiluvchi burgulash skvajinalari orkali amalga oshiriladi;



- \* kon foydali kazilmani kazib olish obyektini va kayta ishlash joyi xisoblanadi, ya'ni bu texnologiya foydali komponentni tanlab ajratib olishga yunaltilgan;
- \* geotexnologik korxonalar - tarmok (stansiya) - quyidagi uchta asosiy elementdan iborat: ishchi agentlarni tayyorlash bloki, kazib olish maydoni, maxsuldor flyuidlarni kayta ishlash bloki;
- \* kazish instrumenti sifatida kazish maydoniga kiritilgan ishchi agentlar, ya'ni energiya va uni tashuvchilari xizmat qiladi;
- \* foydali kazilma ishchi agent ta'sirida yengil xarakatchanlik kashf etib uzining agregat xolatini uzgartiradi yoki boshqa moddaga aylanadi va ajralib chika boshlaydi;
- \* kongra ishlov berish zonal xarakterga ega, ya'ni vakt davomida kon konturida joylashgan ma'lum bir burgulash skvajinalarda davom etadi;
- \* kazishni boshkarish yukoridan turib ishchi agentlar yuborishni ulchamlarini va xarakterini uzgartirish bilan olib boriladi.

1-jadval

Foydali kazilma konlarini geotexnologik usulda qazib olishning tasniflari


foydali kazilmani xarakatchan xolat kurinishlari	Foydali kazilmani xarakatchan xolatga utkazish usullari		
	Fizikaviy	Kimyoviy	Kombinatsiyalashgan (fizikaviy, kimyoviy va biologik ta'sirlarning kompleksi)
Gazsimon	Tempratura, bosim ta'sirida	Oksidlash, parchalash	Fizik maydon ta'sirida kimyoviy reaksiya, mikrobiologik ta'sir
Okuvchan suyuq (eritma, korishma)	Bosim, xarorat ta'sirida	Molekulyar eritma xosil kilib ishkorlanish va erish	Fizik maydon ta'-sirida, mikrobiologik ta'sir bilan erish, ishkorlanish va gidrogenezatsiya
Gidromexanik korishma	Gidro-, bosimli xavo bilan maydalash, fizik maydon ta'sirida	Boglovchi moddalarni eritish	Sirtga aktiv ta'sir kiluvchi moddalar, kimyoviy reagentlarni fizikaviy maydonda mikrobiologik ta'siri

Xozirgi vaktida kator foydali kazilmalarni kazib olishda geotexnologik usulkeng kullanilmokda. Bularga tuz, oltingugurt, mis uran va boshkalar misol bula oladi. boshka foydali kazilma konlariga yarim sanoat, tadjikot va tajriba ishlari olib borilmokda.

2-jadval

Geotexnologik usullardan foydalanishni zamonaviy xolati


Usul	Sanoati uzlashtirilgan obyektlar	Yarim sanoat va tadqiqot ish-lari, loyixalar, takliflar va patentlar kilinayotgan maydonlar
Yer ostida eritmaga aylantirish	Kaliy va toshtuzi konlari	Bishofit, soda, glauber tuzi konlari
Yer ostida ishkorlash	Mis va nikel sulfid konlarini oksidlangan zo-nalari. Uranning infiltratsion va chukindi in-filtratsion konlari, shu-ningdek endogen konlarini balansdan tashkari uchast-kalari	Marganets, mis kurgoshin, rux va nikel, oltin, titan va oxaktoshning sulfid konlari. Chukindi kungir temir konlari.
Yer ostida eritish	Sof tugma oltingugurt konlari.	
Yer ostida gazga aylantirish	Tosh va kungir kumir konlari	Oltingugurtning kurigan konla-ri. Oxaktosh, yonuvchi slanets konlari, mishyak va simob tar-kibli ma'danlar. Suv utkazmaydigan ma'danlardagi oltingugurt, bitum va ogir neft. Asfaltit, metallarning vulkanogen konlari, ozokerit, oltingugurt
Burgulash skvajinalari yordamida suyuqlik ta'sirida kazib olish	Kurulish konlari va fosforit konlari	Metallar, kurilish kumlari va shagalning chukindi konlari. Ti-tan, oltin va olmos, yigilgan sochilmalardagi kassiterit, ilmoksimon fosforitlar, kumir yumshok boksitlar, temir va boshkalar.




### 1.3. Yer osti tanlab eritmaga o'tkazish. Foydali qazilmalarni xarakatchan xoltga o'tkazish.

Geotexnologiyaning asosiy muamolari quyidagilardan iborat:

- \* zalejning fizik-geologik xolati, foydali kazilma va yon jinslar bilan ishchi agentlar va molekula, ion, atom xolatida kazib olish vositalarini boglanishini urnatish;
- \* ishlab chikarish kuvvatini va maxsuldorlikni oshirish maksadida geotexnologik jarayonlarni boshkarishni mukammallashtirish;
- \* kam operatsiyali, uzviylik, xizmatni oddiyli va ishonchliligi, kam chikindililik, kam energiya sarfi, yukori ishlab chikarish kuvvati va arzon
- \* tannarxga asoslangan foydali kazilmani butunlay komponentga tugridan tugri aylantirib beruvchi yangi mukammal texnologiyani yaratish;
- \* kazib olingan maxsuldor flyuidni kayta ishlashni va chikindilarni bartaraf etishni mukammallashtirish;
- \* atrof muxitni va konchilik ishlarining ijtimoiy vositalarini ximoya qilish.




Yer osti suvlaridagi foydali kazilmalarni kazib olish	bromyodli, bor, uran, stronsiy tarkibli suv konlari	Neft sanoatida, shaxta va rudniklarda yigiladigan suvlar
Yer xaroratidan foydalanish va ajratib olish	Tabiiy parogidrotermalar	“Kuruk” tog jinslarining issikligi.



Geotexnologiyada aloxida olingan tog jinslarini urganish kabul kilinmagan. Tog jinslari massivlarining xolati, tarkibi va tuzulishi tugrisidagi savollarni geologiya kursida urganiladi. Kuyida biz massivlarning geotexnologiyada aloxida axamiyatga ega bulgan xususiyatlari bilan tanishib chikamiz.

Geotexnologiyaning rivojlanishiga katta xissa kushgan olimlardan D.I.Mendeleyev, D.Ramsey, V.I.Vernadskiy, YE.N.Fersman, V.V.Rjevskiy, V.J.Arens va boshkalar.



#### NAZORAT SAVOLLARI:

1. Geotexnologiya asoslari fani nimani o‘rganadi?
2. Geotexnologik usulning qanday usullarini bilasiz?
3. Erish va ishqorlanig tushunchalariga izoh bering?
4. Qaysi foydaliq qazilmalarni bu usulda o‘zlashtirish mumkin?
5. Qaysi olimlarning o‘rni fanni rivojida beqiyos?

#### Foydalagilgan adabiyotlar

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.–279b.
2. Kreativnaya pedagogika. Metodologiya, teoriya, praktika. / pod. red. Popova V.V., Kruglova Y.G.-3-ye izd.–M.: “BINOM. Laboratoriya znaniy”, 2012.–319 s.
3. Karimova V.A., Zaynutdinova M.B. Informatsionniye sistemi.- T.: Aloqachi, 2017.- 256 str.

## **2-mavzu: Foydali kazilma konlarini geotexnologik usulda kazib olishning fizik-kimyoviy asoslari va jarayonlari.**

### **Reja:**

1. Foydali kazilma konlarini kazib olishda tog jinslari massivining gidravlik xususiyati.

2. O'tkazuvchanlik va filtratsiya koeffitsiyenti. gidroajratish, gidrokutarish, gidroparchalash, gidrotransport.

**Foydali kazilma konlarini kazib olishda tog jinslari massivining gidravlik xususiyati.** Foydali kazilma konlarini kazib olishda tog jinslari massivining gidravlik xususiyati bir muncha katta ahamiyat kashf etadi. Gidravlik xususiyatning asosiy guruxi filtratsiya xisoblanadi. Filtratsion xususiyat birinchi navbatda govaklikka bog'liq, ya'ni tog jinsi tarkibidagi mineral bulaklari yoki ularning agregatlari orasidan utgan barcha boshliklar yigindisi.

*Umumiy govaklik* - boshlik va govaklarning umumiy xajmini tog jinsi xajmiga nisbati.

*Dinamik govaklik* - fakatgina suyuqlik filtrlanishi mumkin bulgan govaklar, kupincha uni ochik (samarador) govaklik xam deyiladi.

Tog jinslarini uzidan suyuqlik va gazlarni utkazish utkazuvchanlik va filtratsiya koeffitsiyentlari bilan xarakterlanadi. Samarador, mutlok va nisbiy utkazuvchanliklar mavjud

Bu xususiyatlardan tashkari tog jinslarini gidravlik xususiyatlariga kuyidagilar xam kiradi: namni uzida saklash, suv uzatish, suvga chidamlilik, kapilyarlik, shishish, torayish, adsorbsiya, va xakozo.


Foydali kazilma konlarini geotexnologik usul bilan kazib olishda tog jinslari massivining bir aloxida mexanik va akustik xususiyatlarini xam xisobga olish zarur. Aloxida mexanik xususiyatlarga, mustaxkamlik, kattiklik, plastikligi kiradi.

Geotexnologik usulning asosida fizikaviy va kimyoviy jarayonlar yotadi. Fizik jarayonlar foydali kazilmani shaklini, tashki kurinishini va fizik xususiyatlarini uzgartiradi. Kimyoviy jarayon foydali kazilmalarni kimyoviy tarkibini va kimyoviy xususiyatini uzgartiradi. Xar bir geotexnologik usul bir emas bir necha turli xil

jarayonlarni uz ichiga oladi, ularning biri - asosiy, boshkasi - yordamchi, uchunchisi - ta'minlovchi xisoblanadi.

Asosiy jarayonlarga foydali kazilmani kazib olish bilan bogliq bulgan jarayonlar kiradi. Masalan: foydali kazilmani xarakatchan xolatga utkazish, kazib olish maydonida ishchi agentlarni yetkazib berish, maxsuldor flyuidlarni yer yuzasiga uzatish.

Ta'minlovchi jarayonlarga kazish jarayonlarini bajarishga imkon yaratib beruvchi jarayonlar kiradi. Bularga ishchi agentlarni tayyorlash, konni ochish va tayyorlash jarayoni, maxsuldor flyuidlarni kayta ishlash, kazib olish ulchamlarini boshkarish va nazorat kilish, sifat va boshkalar kiradi.



Yordamchi jarayonlarga energiya ta'minoti, kazib olish uskunalarini remont kilish, kazib olish ishlarining geologo-marksheyderlik ta'minoti.

Turli xil erituvchilar yordamida kupchilik foydali kazilmalarni xarakatchan xolatga utkazish mumkin. Bunday utish foydali kazilma va erituvchini uzaro ta'sirlashuvi mexanizmi bilan farkanuvchi, iskorlash va eritish jarayoni natijasida sodir buladi.

Erish foydali kazilma kimyoviy tarkibini buzmasdan diffuziya va molekulararo ta'sirlashuv natijasida sodir buladi. Eritish jarayoni asosida galit, silvin bishofit va boshka suvda eruvchi tuzlarni burgulash skvajinalari yordamida kazib olish yotadi.



*Ishkorlash* natijasida foydali kazilmani kimyoviy tarkibi uzgarib eritmaga aylanadi. Ishkorlash usuli orkali ma'dandan metallar, ularning tuzlari va oksidlari ajratib olinadi.

Ishkorlash agenti sifatida kislotalar va tuzlarning suvli eritmaları kullaniladi.



Erish jarayoni - ikki: kattik va suyuq muxit orasida boradigan geterogen reaksiya.

U quyidagicha:

erituvchini eruvchi modda yuzasiga kelishi;

- \* erituvchi va eruvchi moddani uzaro ta'sirlashuvi (fazalar aro jarayon)
- \* erigan moddani eriyotgan modda yuzasidan ajralishi (diffuzion jarayon)

Erish tezligi eriyotgan modda yuzasining kiyalik burchagiga va erituvchining xaroratiga bog'lik. Bu vaktida u bosimga kam bog'lik buladi. Tuzlarni eritish tabiati juda murakkab, erimaydigan komponentlar xisobiga yanada murakkablashadi.



Ishkorlash jarayoni eritish jarayoniga karaganda yanada murakkabrok. U bulaklar ulchami va shakli, katlam uzunligi, erituvchi konsentratsiyasi, suyuqliklar xarakatini gidrodinamikasini ta'sirini xisobga oluvchi murakkab differensial tenglama bilan yoziladi. Ishkorlashga asoslangan minerallarni kimyoviy ajratib olish usuli, asosan foydali komponentni saralab ajratib olishga karatilgan. Ishkorlash jarayoni mexanizmi eriyotgan mineral tarkibi va strukturasi, kristal panjarasidagi kimyoviy boglanish xarakteri, erituvchining fizika-kimyoviy xususiyatlari kompleksi bilan aniklanadi. Ishkorlash asosida quyidagilar yotishi mumkin:

- \* almashinish reaksiyasi, ionlar almashinuvi natijasida yengil eruvchan birikmalar xosil buladi (metall tuzlari va oksidlarini kislotalar bilan ta'sirlashuvi natijasida);

- \* oksidlanish-kaytarilish reaksiyasi, ishkorlovchi atom elektronlari mineral atomlariga utishi va aksincha buladigan jarayon xisobiga yengil eruvchi birikmalar xosil buladi; elektron beruvchi modda kaytaruvchi, kabul kiluvchi esa oksidlovchi;

- \* kompleks birikmalar xosil kiluvchi reaksiyalar

Kupincha ishkorlash jarayoni erish yuzasida kimmatli komponentlarni chukishiga yoki zich plyonka kobik bilan koplanishiga olib keladi.

Yer ostida ishkorlashda erituvchiga quyidagi talablar kuyiladi:

- \* foydali komponentni eritmada nisbatan butunlay erishini ta'minlash;
- \* reagentning arzon tan narxi va xalk xujaligida tutgan urni;
- \* ishkorlash jarayonida saralanish
- \* kullaniladigan apparat va materiallarning korroziyaga chidamliligini ta'minlash
- \* ishkorlanayotgan ruda massasida govak va kapilyarlarni berkilib kolishi va massivni utkazuvchanligini pasaytiruvchi sharoitni bartaraf kilish;
- \* kizitmasdan, kushimcha maydalamasdan, aralashtirmasdan va shunga uxshashlarsiz jarayonni amalga oshirish;

Ishkorlash uchun bir muncha arzon erituvchi sulfat kislotasi xisoblanadi.

Ishkorlash jarayoni uchta asosiy boskichni uz ichiga oladi:

- \* erituvchini ishkorlanuvchi mineral satxida tashish;
- \* eruvchi tuz shakllanishi bilan boradigan kimyoviy reaksiya;
- \* erigan maxsulot reaksiyasini eritma xajmida tashish;



Ishkorlash jarayoni vaktida massivning utkazuvchanligini pasayishi yuz beradi. Bu kurinish kolmatatsiya deyiladi. Kolmatatsiyaning quyidagi shakllari ajratiladi:


- \* kimyoviy, govaklarda kimyoviy chukindilarni shakllanishi bilan boglik
- \* gazli, kislota bilan karbonat tarkibli jinslarning ta'sirlashuvi natijasida tabakada gazsimon maxsulotlarni shakllanishi;



- \* ion almashinuv, utkazuvchan jinslarda organik moddalar va gilli bulaklar ishtirokida govaklarning ulchamlarini rN uzgarishini ta'siri ostida va eritmalarni filtrlashda mineralizatsiyalanish natijasida uzgarishi;

